PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTURI MAZMUN VA MOHIYATI. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI O‘QIB TUSHUNISH DARAJASINI TEKSHIRISH VA ULARNI PIRLS BAHOLASH DASTURLAR ASOSIDA TAYYORLASH

Matyakubova Nuriya Azimbayevna,
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Dunyoda ta’lim amaliyotida sifat va samaradorlikni xalqaro dasturlar talablari asosida baholash metodologiyasi hamda natijalarning reprezentativligini ilmiy-pedagogik muammo sifatida tadqiq qilish an’anasi kuchaymoqda. 1961-yildan Xalqaro ta’lim muvaffaqiyatini tekshirish tashkiloti (IEA) tomonidan birinchi xalqaro taqqoslash dasturlari o‘tkazila boshlangan bo‘lsa, 1964-yilda tashkilot tomonidan matematika fani bo‘yicha birinchi Xalqaro baholash dasturi – FIMS (The First International Mathematics Study) ham qo‘shildi. PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study – 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro baholash dasturi), 2001-yildan o‘tkazila boshlagan, bu tadqiqot har 5 yilda bir marta o‘tkaziladi. Yuqoridagi xalqaro baholash tadqiqotlaridan kelib chiqqan holda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini PIRLS xalqaro baholash sinovlariga tayyorlash texnologiyalarini shakllantirish va yanada rivojlantirish ilmiy-pedagogik muammo sifatida o‘rganishda ushbu maqolamizni ahamiyati juda katta hisoblanadi. Ta’lim mazmunini xalqaro tadqiqotlarga moslashtirish va shunga mos keladigan o‘quv adabiyotlari kompleksi va didaktik materiallarni yaratishni taqozo qiladi va unga nisbatan ilmiy yondashuvni qaror toptirish, hodisaning mohiyatini chuqur ilmiy tahlil qilish zaruratini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: IEA, PIRLS, FIMS, CORI, UNICEF, baholash metodologiyasi, didaktik materiallar, inferensial-evaluativ mezonlar.

Аннотация. В мировой образовательной практике наблюдается растущий интерес к исследованию методологии оценки качества и эффективности (с учетом требований международных программ), а также репрезентативности получаемых результатов, что представляет собой важную научно-педагогическую проблему. Международная ассоциация по оценке учебных достижений (IEA) начала проводить первые международные сравнительные исследования еще в 1961 году, а в 1964 году запустила первую международную программу оценки по математике – Первое международное исследование качества математического образования (FIMS). Программа PIRLS (Международное исследование качества чтения и понимания текста), оценивающая уровень читательской грамотности учащихся 4-классов,

проводится с 2001 года с периодичностью раз в пять лет. В данной статье рассматривается – как научно-педагогическая проблема – разработка и совершенствование методик подготовки учащихся начальной школы к международному исследованию PIRLS. Приведение содержания образования в соответствие с международными исследовательскими стандартами требует создания комплексного учебно-методического обеспечения; это, в свою очередь, предполагает формирование научного подхода и глубокий теоретический анализ сущности данного феномена.

Ключевые слова: IEA, PIRLS, FIMS, CORI, ЮНИСЕФ (UNICEF), методология оценки, дидактические материалы, критерии логического вывода и оценивания.


Abstract. In global educational practice, there is a growing trend toward researching the methodology for evaluating quality and effectiveness – based on the requirements of international programs – as well as the representativeness of the results, as a scientific-pedagogical issue. While the International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA) began conducting the first international comparative programs in 1961, it also introduced the first international assessment program in mathematics – the First International Mathematics Study (FIMS) – in 1964. PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) – an international assessment program that measures the reading and text comprehension levels of 4th-grade students – has been conducted since 2001, with the study taking place every five years. This article holds significant importance in examinin – as a scientific-pedagogical issue – the development and further advancement of methodologies for preparing primary school students for the PIRLS international assessments. Aligning the content of education with international research standards necessitates the creation of a comprehensive set of educational literature and didactic materials; this, in turn, requires the establishment of a scientific approach and a profound scholarly analysis of the essence of the phenomenon.

Key words: IEA, PIRLS, FIMS, CORI, UNICEF, assessment methodology, didactic materials, inferential-evaluative criteria.

Jahonda ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilimlarini turli hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, axborotni anglash, talqin qilish, baholash va asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirish ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. UNESCOning “Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action” dasturiy hujjatida sifatli ta’limning muhim natijalari sifatida bazaviy savodxonlik bilan bir qatorda analitik fikrlash, muammolarni

hal etish va yuqori darajadagi kognitiv ko‘nikmalarni shakllantirish, ta’lim natijalarini ishonchli baholash tizimlarini rivojlantirish zarurati belgilangan [8].

PIRLS 2021 xalqaro natijalari va PIRLS 2021 Encyclopedia: Education Policy and Curriculum in Reading materiallarida esa, ishtirokchi mamlakatlarning boshlang‘ich ta’limdagi o‘qish dasturlari, pedagoglarning kasbiy rivojlanishi, o‘quvchilarning o‘qish yutuqlarini monitoring qilish tizimlari va maxsus o‘qish dasturlari qiyosiy tahlil qilingan. O‘zbekistonning nomi 57 ta davlat va 8 ta iqtisodiyotlar qatnashgan PIRLS 2021 yirik xalqaro tadqiqoti ishtirokchilari qatoridan o‘rin oldi. Mamlakatimizdagi ijobiy islohotlar doirasida Hukumat qaroriga asosan Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tadqiqotlari milliy markazi tashkil etilib, xalqaro IEA tashkiloti bilan olib borilgan to‘rt yillik chora-tadbirlar natijasida ushbu xalqaro tadqiqotda O‘zbekistonning ishtirokini ta’minlashga erishildi. Ushbu tadqiqot orqali boshlang‘ich ta’lim sifatini xalqaro darajada solishtirish, o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi bo‘yicha natijalarini taqqoslash, ota-onalar va o‘qituvchilarning ro‘li, farzandlarning ta’lim olishlari uchun maktab va uydagi sharoitlar bo‘yicha atroflicha ilmiy asoslangan va ishonchli ma’lumot olish imkoniyatlari paydo bo‘ldi. Mazkur 5 yilda o‘tkaziladigan tadqiqotning keyingi 2026-yildagi davriyligida natijalar orqali mazkur sohalardagi o‘zgarishlarni kuzatib borish mumkin bo‘ladi. Tadqiqot mualliflarni natijalarni o‘qish ko‘nikmalari darajalari bo‘yicha 4 guruhga (past daraja – 400 ball, o‘rtacha – 475 ball, yuqori – 550 ball va rivojlangan – 625) bo‘lishganda, O‘zbekistonlik o‘quvchilarning 70%i quyi va 34%i o‘rtacha natijalarni qayd etishgan, o‘quvchilarning 7%i yuqori natijalarga erisha olgan, rivojlangan darajasiga erishgan o‘quvchilar esa, yo‘q. Solishtirishma tahlil: Singapurda “rivojlangan” darajasiga yetgan o‘quvchilar ulushi 35%ni tashkil qilgan. Sobiq post-sovet davlatlaridan Rossiyada “yuqori” darajaga yetgan o‘quvchilar ulushi 63%ni, Litvada 54% ni, Latviyada – 40%, Gruziyada– 25%, Qozog‘istonda– 28% va Ozarbayjonda 11% ni tashkil qilgan. Xalqaro miqyosda esa o‘quvchilarning 36% yuqori va 75%i o‘rtacha natijalarga erisha olgan. Yuqori darajaga erishgan o‘quvchilar quyi darajaga ham erishgan hisoblanadi, shuning uchun bu kategoriyada davlatdagi har bir kategoriyaga erishgan o‘quvchilar foizi qo‘shilganda yig‘indi 100% dan ko‘p chiqadi. Misol uchun, Singapurda “rivojlangan” darajasiga erishgan o‘quvchilar 35% ni, yuqori – 71%, o‘rtacha – 90% va quyi – 97% ni tashkil qiladi.



1-rasm. O‘qish ko‘nikmalari bo‘yicha yuqori darajaga (550 ball) erishgan o‘quvchilar ulushi

Xalqaro PIRLS tadqiqot vositalariga quyidagilar kiradi: Matnlar va savollar yozilgan daftar. O‘quvchi anketasi. O‘qituvchining ma’lumotlari. Ota-onalar haqida ma’lumot. Maktab ma’muriyatining strukturasi, ish-rejasi. Kuzatuvchilarning milliy qo‘llanmasi. Mintaqaviy muvofiqlashtiruvchi qo‘llanma. Maktab koordinatori uchun qo‘llanma. O‘quv qo‘llanma. Ishni baholash va javoblarni kodlash bo‘yicha qo‘llanma.

Tadqiqotning har bir ishtirokchisiga matnlar va ularga topshiriqlar berilgan daftar beriladi. Birinchi matn – bu fantastika yoki kulgili hikoyalar, tasvir yoki ertak, ikkinchisi - ma’lumotli (ko‘pincha hayvonlar haqidagi hikoya). Har bir matnga 12-15 ta savol-topshiriqlar ilova qilinadi.

Quyida biz buyuk qomusiy olim “Abu Ali Ibn Sino” nomli matnni PIRLS tadqiqotlari va CORI texnologiyasiga moslagan holda ko’rib chiqamiz.

Mavzu: Buyuk alloma – Abu Ali ibn Sino

Ushbu material 4-sinf o‘quvchilari uchun PIRLS uslubida tayyorlandi. Unda o‘qish uchun matn, to‘rtta tushunish jarayoniga mos topshiriqlar, javoblar kaliti va baholash mezonlari berilgan. Materialni darsda, nazorat ishida yoki CORI metodikasi asosida mashg‘ulot tashkil etishda ishlatishingiz mumkin.

Bilimga oshno bo‘lgan alloma

Abu Ali ibn Sino 980-yilda Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog‘ida tug‘ilgan. U yoshligidan bilim olishga juda qiziqqan. Ayniqsa, kitob o‘qishni, tabiat hodisalarini kuzatishni va turli savollarga javob izlashni yaxshi ko‘rgan. Ibn Sino juda tirishqoq bo‘lgan. U dastlabki bilimlarni ustozlaridan olgan, keyinchalik esa, mustaqil ravishda ko‘plab kitoblarni mutolaa qilgan. U matematika, mantiq, falsafa, tabobat va boshqa fanlarni o‘rgangan. Biror narsani tushunmay qolsa, darhol taslim bo‘lmagan, qayta o‘qigan va izlanishda davom etgan. Yoshligidayoq tabobatga katta qiziqish bildirgan Ibn Sino inson salomatligi, kasalliklarning sabablari va ularni davolash usullarini o‘rgangan. U bemorlarni kuzatish va ularning ahvolini diqqat bilan o‘rganish muhimligini anglagan. Uning fikricha, tabib kasallik belgilariga e’tibor berishi va

bemorga yordam berish uchun puxta bilimga ega bo‘lishi kerak edi. Ibn Sinoning eng mashhur asarlaridan biri “Tib qonunlari” deb ataladi. Bu asarda inson tanasi, turli kasalliklar, ularning belgilari va davolash usullari haqida ko‘plab ma’lumotlar jamlangan. Asar uzoq vaqt davomida Sharq va Yevropadagi tabiblar uchun muhim qo‘llanmalardan biri bo‘lib xizmat qilgan. Ibn Sino faqat tabib emas, balki ko‘plab fanlar bilan shug‘ullangan buyuk olim ham edi. U ilm-fan rivojiga katta hissa qo‘shgan. Uning hayoti bizga bilim olish, sabr-toqatli bo‘lish va izlanishdan to‘xtamaslik insonni yuksak marralarga olib borishini eslatadi. Izoh: bu matn PIRLS uslubidagi o‘quv mashqi uchun moslashtirib yozilgan. U rasmiy PIRLS materiali emas.

2. Topshiriqlar

I. Ochiq ifodalangan ma’lumotni topish

Bu topshiriqlarda javob matnda bevosita berilgan.

1. Ibn Sino qayerda tug‘ilgan? (1 ball)

A) Samarqand shahrida
B) Afshona qishlog‘ida
C) Xiva shahrida
D) Toshkent shahrida

2. Ibn Sinoning mashhur asari qanday nomlanadi? (1 ball)

A) «Qutadg‘u bilig»
B) «Hindiston»
C) «Tib qonunlari»
D) «Devonu lug‘otit turk»

3. Matnga ko‘ra, Ibn Sino qaysi fanlarni o‘rgangan? (1 ball)

A) Faqat tabobatni
B) Faqat tarix va geografiyani
C) Matematika, mantiq, falsafa, tabobat va boshqa fanlarni
D) Faqat adabiyotni

II. Sodda xulosa chiqarish

Bu topshiriqlarda o‘quvchi matndagi ma’lumotlar asosida xulosa chiqaradi.

4. Ibn Sino biror narsani tushunmay qolganda nima qilgan? (1 ball)

A) O‘qishni butunlay to‘xtatgan
B) Boshqalardan yashirgan
C) Qayta o‘qib, izlanishda davom etgan
D) Boshqa mashg‘ulot bilan shug‘ullangan

5. Nima uchun Ibn Sino bemorlarni diqqat bilan kuzatish muhimligini anglagan? (2 ball)

6. Ibn Sinoning bilimli bo‘lib yetishishiga yordam bergan ikkita xususiyatni yozing. (2 ball)

1. _____
2. _____

III. G‘oyalar va ma’lumotlarni talqin qilish hamda birlashtirish

Bu topshiriqlarda o‘quvchi matnning turli qismlaridagi fikrlarni bog‘laydi.

7. “Bilimga oshno bo‘lgan alloma” sarlavhasi matn mazmuniga nima uchun mos? (2 ball)

A) Chunki Ibn Sino faqat kitoblarni saqlagan.

B) Chunki Ibn Sino bilim olishni yaxshi ko‘rgan va turli fanlarni o‘rgangan.

C) Chunki Ibn Sino faqat sayohat qilish bilan shug‘ullangan.

D) Chunki Ibn Sino faqat bemorlarni davolagan.

8. Matnda Ibn Sinoning bolalikdagi qiziqishlari va keyingi ilmiy faoliyati qanday bog‘langan? (2 ball)_____

9. “Tib qonunlari” asari nima sababdan ko‘plab tabiblar uchun muhim bo‘lgan? (2 ball)_____

IV. Mazmun va matn xususiyatlarini baholash

Bu topshiriqlarda o‘quvchi fikrni baholaydi va javobini dalillar bilan asoslaydi.

10. Muallif nima uchun Ibn Sinoning biror narsani tushunmay qolganda qayta o‘qib, izlanishda davom etganini ta’kidlagan? (2 ball)

11. Quyidagi fikrlardan qaysi biri matnning asosiy g‘oyasini eng yaxshi ifodalaydi? (1 ball)

A) Inson faqat bitta fan bilan shug‘ullanishi kerak.

B) Mashhur bo‘lish uchun ko‘p sayohat qilish kifoya.

C) Bilim, tirishqoqlik va izlanish insonning rivojlanishiga yordam beradi.

D) Kitob o‘qish faqat olimlar uchun zarur.

12. Sizningcha, bugungi o‘quvchilar Ibn Sino hayotidan qanday saboq olishlari mumkin? Javobingizni matndan bir dalil bilan asoslang (2 ball)_____

3. Javoblar kaliti va baholash mezonlari

№	To‘g‘ri javob yoki kutiladigan mazmun	Ball
1	B – Afshona qishlog‘ida	1
2	C – “Tib qonunlari”	1
3	C – Bir nechta fanlarni o‘rgangan	1
4	C – Qayta o‘qib, izlanishda davom etgan	1
5	Kasallik belgilarini aniqlash va bemorga to‘g‘ri yordam berish uchun (mazmunan mos javob)	2
6	Tirishqoqlik, bilimga qiziqish, sabr-toqat, mustaqil izlanishdan ikkitasi	2
7	B – Bilim olishni yaxshi ko‘rgan va turli fanlarni o‘rgangan	2
8	Yoshligidan bilimga qiziqqani keyinchalik turli fanlarni o‘rganishi va olim bo‘lishiga zamin yaratgan	2

9	Asarda tana, kasalliklar, belgilar va davolash usullari haqida ma’lumotlar jamlangani uchun	2
10	Izlanish va qayta o‘qish bilimni chuqur egallashga yordam berishini ko‘rsatish uchun	2
11	C — Bilim, tirishqoqlik va izlanish insonning rivojlanishiga yordam beradi	1
12	Bilim olish, sabrli bo‘lish yoki izlanish haqida fikr va matndan mos dalil	2

Jami: 19 ball.

Ochiq javoblarni baholash

2 ballik topshiriqlarda quyidagi mezondan foydalanish mumkin:

2 ball: javob mazmunan to‘g‘ri va yetarlicha asoslangan.

1 ball: javob qisman to‘g‘ri, ammo izohi yoki dalili yetarli emas.

0 ball: javob noto‘g‘ri, mavzuga aloqasiz yoki berilmagan.

7-topshiriqda to‘g‘ri variant uchun 2 ball beriladi, chunki u asosiy g‘oyani aniqlashga qaratilgan.

4. Natijalarni tahlil qilish. O‘quvchining umumiy balidan tashqari, qaysi tushunish jarayonida qiynalayotganini ham aniqlang.

PIRLS ko‘nikmasi	Topshiriqlar	Maksimal ball
Ma’lumotni topish	1–3	3
Sodda xulosa chiqarish	4–6	5
Talqin qilish va birlashtirish	7–9	6
Baholash va tanqidiy fikrlash	10–12	5
Jami	1–12	19

CORI metodikasi bilan mustahkamlash. Darsni yanada samarali tashkil etish uchun testdan keyin quyidagi faoliyatlarni bajaring: Kuzatish: Ibn Sino haqidagi rasmni ko‘rsating va o‘quvchilardan u haqida nimalarni bilishni istashlarini so‘rang. Izlash: matndan allomaning bilim olishi va tabobatga qiziqishi haqida ma’lumotlarni topdiring. Birlashtirish: «Ibn Sinoning muvaffaqiyatiga nima yordam bergan?» mavzusida sabablar jadvalini tuzdiring. Hamkorlik: o‘quvchilarga juftlikda javoblarni muhokama qilish imkonini bering. Dalillash: har bir o‘quvchidan “Men shunday xulosaga keldim, chunki matnda ... deyilgan” shaklida javob berishni so‘rang. Yakuniy ijodiy topshiriq: “Agar Ibn Sino bugungi maktabimizga tashrif buyurganida, unga qanday uchta savol bergan bo‘lardingiz?” O‘quvchilar savollarini yozib, nima uchun aynan shu savollarni tanlaganini tushuntirsin. Bu mashg‘ulot o‘quvchilarning matnni tushunishi, mustaqil fikrlashi va dalillar asosida xulosa chiqarishini birgalikda rivojlantirishga yordam beradi.

Inferensial-evaluativ mezon – o‘quvchining matndagi bevosita va bilvosita axborotlar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishlarni aniqlash, dalillar asosida inferensial xulosa chiqarish hamda matn mazmuni, g‘oyalari va matniy elementlarni evaluativ-

tanqidiy baholash darajasini ifodalovchi mezondir. Bu o‘quvchining matnda bevosita aytilmagan mazmunni dalillar asosida xulosa qilib chiqarishi hamda matn mazmuni, dalillari va muallif pozitsiyasini baholay olishini aniqlovchi mezon hisoblanadi. Quyida biz jadvallar orqali pedagogik mexanizmlarni amaliyotga tadbiq qilinishi hamda PIRLS tadqiqot metodologiyasini ishlab chiqdik.

1-jadval

PIRLS tadqiqoti bo‘yicha pedagogik mexanizmlarni amaliyotga tadbiq etish

t/r	Mexanizm	Amaliyotga tabiq qilinishi
1	Tayyorlov kurslari va o‘quv dasturlarining takomillashuvi	Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun maxsus tayyorlov kurslari va dasturlarini yaratish. Ularning amaliy samaradorligini baholash
2	O‘qituvchilarni tayyorlash	Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining PIRLS xalqaro baholash sinovlariga tayyorlash bo‘yicha malakasini oshirish uchun maxsus treninglar va seminarlarni muntazam, tizimli ravishda amaliy tashkil qilib borish
3	O‘quvchilarni individual xususiyatlarini hisobga olish	Har bir o‘quvchining individual rivojlanish darajasi va ehtiyojlarini hisobga olgan holda pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish

2-jadval

PIRLSni baholash tadqiqot metadologiyasi

t/r	Tadqiqotlar nomi va usullari	Tadqiqot turlari
1	Emperik tadqiqot	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida PIRLS va TIMSS sinovlariga tayyorlash jarayonida olib borladigan amaliy tadqiqotlar. O‘quvchilarni tayyorlash usullari va metodlarini sinovdan o‘tkazish.
2	Tahlil usullari	Kvalitativ va miqdoriy usullar orqali o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasini o‘lchash va baholash. Testlar, anketalar, o‘qituvchilarning fikrini so‘rash va boshqa usullar orqali olingan ma’lumotlarni tahlil qilish.
3	Pedagogik diagnostika	“Taqqoslash, pedagogik tahlil qilish, oldindan ayta bilish (prognoz), interpretatsiya, pedagogik diagnostika natijalarini doimiy ravishda o‘quvchilarga yetkazish, pedagogik diagnostika metodlarini to‘g‘ri belgilash, pedagogik diagnostikaning turli kriteriyalari: haqqoniylik, ishonchlilik, puxtalikka asoslangan holda yuqori natijalarga erishish”.

Maktab tizimi bo‘yicha baholashda xalqaro baholash daturlari PIRLS xalqaro so‘rovlar milliy standartlarni kuzatish va ularni boshqa yurisdiktsiyalar bilan taqqoslash orqali toboro o‘xshash ro‘l o‘ynamoqda. Bu xalqaro baholash sinovlarida O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yuqori 20 yoki 30 talik mamlakatlar qatoriga qo‘shishda baholash bo‘yicha izchil islohatlarni amalga oshirish lozim.

Ta’lim sifati va ulardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash maqsadida amalga oshirilayotgan o‘zbek ta’limini modernizatsiya qilish samaradorligi ko‘p jihatdan har xil turdagi ta’lim natijalari bo‘yicha tadqiqotlar doirasida olingan obyektiv ma’lumotlardan foydalanish darajasiga bog‘liq. Ushbu barcha tadqiqotlar ta’limning holati va uning o‘zgarishi tendentsiyalari to‘g‘risida ma’lumot beradi, rejalashtirilgan va erishilgan natijalarni o‘zaro bog‘lash, ta’lim sifatini dunyoning boshqa mamlakatlari bilan taqqoslash va shu asosda hal qilinishi kerak bo‘lgan eng muhim muammolarni aniqlash imkonini beradi. Ushbu tadqiqotlar natijalari amalga oshirilayotgan islohotlar yo‘nalishini o‘zgartirish va kelgusi yillarda ta’lim holatini prognoz qilish uchun ko‘rsatma bo‘lib xizmat qiladi. “Xalqaro PIRLS tadqiqoti eng yaxshi o‘quv dasturlari va yosh o‘quvchilarning o‘qish qobiliyatlarini rivojlantirish tajribasi haqida noyob axborot materiallarini taqdim etadi. PIRLS tadqiqotlarida qatnashish O‘zbekistonga boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida o‘qish qobiliyatlari darajasini mustaqil ravishda obyektiv baholash imkonini beradi. Bundan tashqari, O‘zbekiston ta’limining ochiqligi va integratsiyalashuvi dunyoning yetakchi ta’lim tizimlarining xalqaro hamjamiyatiga integratsiyalashuvini ta’minlaydi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi PF-60-son

2. Mullis, I.V., von Davier, M., Foy, P., Fishbien, B., Reynolds, K.A., Wry, E. (2023). PIRLS 2021 O‘qish savodxonligi bo‘yicha xalqaro natijalar. Boston kolleji, TIMSS va PIRLS xalqaro tadqiqot markazi.

3. Matyakubova N.A. Assesment of answers to questions in the international PIRLS study on reading literacy assessment of primary class students. International journal of pedagogics, (IJP) Journal Impact Factor DOI-10.37547 JP Vol. 04 Issue 10-2024. P. 136-142.

4. Sage Journals, Reading Rockets

5. Mullis, I.V., Martin. M.O (Eds). (2017). TIMSS (2019) Assesment Frameworks. Retrieved from Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center.

6. Ismailov A.A. va boshq. O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan axborotnoma: Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan topshiriqlar to‘plami. 2021. – 3-son.

7. https://pirls.bc.edu/

8. UNESCO. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action for the Implementation of Sustainable Development Goal 4. Paris: UNESCO, 2016.